

## MA'MURIY HUQUQBULARLIK NAZARIY VA HUQUQIY TAVSIFI

<sup>1</sup>Rizayev Xudoynazar Amirullo o'g'li  
TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali Jinoyat-huquqiy  
fanlar kafedrasida o'qituvchisi,  
[xudoynazarrizayev95@gmail.com](mailto:xudoynazarrizayev95@gmail.com),

<sup>2</sup>Mingboeva Sakinabonu Shuhrat qizi  
TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali 3-kurs talabasi.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440372>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'muriy huquqbuzarlik sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari tushunchasi, ularning tasniflanishidagi asosiy jihatlari, turlarining o'zaro farqlari orasida aniq chegaralar o'rnatish borasidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mamuriy huquqbuzarlik, mamuriy javobgarlik, mamuriy jazo, bir necha huquqbuzarliklar. subyektlar, umumiy sub'ektlar, Maxsus subyektlar, alohida subyektlar.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi esa inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun ham Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarimuhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat qilish ruhida tarbiyalash - bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, ma'muriy huquqbuzarlik huquqiy tarmog'i boshqa huquq sohalaridan o'zining biroz murakkabligi va ommaviyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa hozirgi kunda mamlakatimizda ma'muriy huquqbuzarlik doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bu sohaning dolzarb ekanligini yanada yaqqol ko'rsatmoqda. Ma'muriy huquqbuzarlik sohasi nihoyatda keng va hali to'liq tadqiq etilmagan tarmoq bo'lgani sababli uning institutlari tushunchasi, mazmuni borasida huquqshunos olimlar xilma-xil fikr va yondashuvlarni taklif etadilar. Ana shunday muammoli vaziyatlardan biri ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari institutining mazmuni bilan bog'liq. Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlarini tushunib olish uchun avvalo ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va uning mazmun mohiyatini anglash lozim. Chunki aynan mamuriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni biz mamuriy huquqbuzarlik subyektlari deb bilamiz. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasiga binoan esa ma'muriy

huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushunilishi belgilangan.

G'ayrihuquqiy xulq-atvor ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilanishi uchun:

- ijtimoiy xavflilik darajasi kamroq bo'lishi;
- yetkazilgan zarar miqdorining kam bo'lishi talab etiladi.

Chunki juda ko'p hollarda huquqbuzarlikning xavflilik darajasi va zarar miqdorining ko'proq bo'lishi g'ayrihuquqiy qilmish, harakat yoki harakatsizlikni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholab, uni jinoyat sifatida baholash uchun asos bo'ladi va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Bundan bilib olishimiz mumkinki, faqatgina g'ayrihuquqiy, aybli ya'ni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir qilingan harakat yoki harakatsizlik shaxsga, davlat va jamoattartibiga, mulkchilikka, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, tabiiy muhitga tajovuz qilish ko'rinishida bo'lishi va O'zbekiston respublikasida amalda bo'lgan qonun hujjatlarida aynan ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan holatlarga huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytsihimiz mumkinki ma'muriy huquqbuzarlikning uchta belgisi bor:

- 1) ayblilik;
- 2) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik;
- 3) javobgarlikka belgilanganligi<sup>1</sup>.

Qonun chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga ijtimoiy tavsif berar ekan, jinoyatlardan farqli o'laroq, ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan. Bu bilan huquqbuzarliklar mazkur ikki turining sifat farqlari qayd etilgan, amaldagi qonun hujjatlari amaliyoti esa javobgarlikning sodir etilgan aybga muvofikligini ta'minlashga va davlat majburlashining haddan tashqari kengayishiga barham berilishiga qaratilgan. Ijtimoiy xavfli qilmish bu ijtimoiy munosabatlarga ma'lum bir zarar keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan qilmishdir. Bunday xatti-harakatlarning yig'indisi ma'lum bir tarixiy sharoitda jamiyatning mavjud bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli barcha huquqbuzarlikni (shuningdek, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarni) ijtimoiy xavfli qilmish deb topish mumkin emas.

Ma'muriy huquqiy javobgarlik huquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, ularga boshqaruvning o'rnatilgan umumtartib qoidalarini bajarmaslik,

<sup>1</sup> Ma'muriy javobgarlik (Umumiy va Maxsus qism) / Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. 17- bet.

masalan, yo'l harakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muhofaza etishga qarshi harakatlar va boshqalar kiradi. Ya'ni ma'muriy javobgarlik bu qonunchilikka binoan huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat boshqaruv organlari va sud tomonidan huquqiy ta'sir chorasining qo'llanilishi hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. G'ayrihuquqiy qilmish, harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik sifatida topilishi uchun uning sub'ektining mavjud bo'lishi shart ekanligi huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan. Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ekti bu - ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsdir. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso shaxslar, agar ushbu kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi deb belgilangan.

Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari quyidagi belgilarga ega bo'lishi shart:

- Aqli raso bo'lishi;
- jismoniy shaxs;
- Belgilangan yoshga to'lgan bo'lishi<sup>2</sup>.

Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektining aqli raso bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki aqli noraso shaxs o'zining xulq-atvorining oqibatini anglamaydi va o'zining harakatlarining oqibati uchun ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi. G'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni ruhiy holatining surunkali yoki vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bundan kelib chiqib ko'rishimiz mumkinki, ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlarining asosiy xususiyatlaridan biri aqli rasolik ekan. Belgilangan yoshga to'lgan bo'lishi deganda tushunishimiz lozim bo'lgan jihat shuki, ma'muriy huquqbuzarlik sub'ekti sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxs O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangandek, 16 yoshga to'lgan bo'lishi talab etiladi. Negaki, shaxslar 16 yoshga yetgunga qadar o'zining ijtimoiy xatti-harakatining huquqiy oqibatini anglaydigan darajada onga ega bo'lmaydilar<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Ma'muriy javobgarlik (Umumiy va Maxsus qism) / Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. 21- bet.

<sup>3</sup> Ризаев, Х. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ХУҚУҚБУЗАРЛИГИ ПРОФИЛАКТИКАСИ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(5), 141-147.

Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari institutini tahlil qilgan olimlarning fikr-mulohazalariga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari uch asosiy guruhga bo'linadi:

- Umumiy subyektlar;
- Maxsus subyektlar;
- Alohida subyektlar.

Ma'muriy huquqbuzarlik umumiy sub'ektlari 16 yoshga to'lgan aqli raso, jismoniy shaxslardir. Umumiy sub'ektlar umumiy tartibda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Ya'ni, davlatimizda ma'muriy huquqbuzarliklar sohasini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan umumiy tartibda javobgarlik belgilanadi.

Maxsus sub'ektlarning boshqa turdagi sub'ektlardan alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ya'ni bu sub'ektlar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan alohida tartibda javobgarlikka tortiladi.

Maxsus subyektlar quyidagilardir:

- 1) haydovchilar;
- 2) mansabdor shaxslar;
- 3) voyaga yetmaganlar;
- 4) chet el fuqarolari va boshqa shaxslar<sup>4</sup>.

Voyaga yetmaganlar yuqorida umumiy sub'ektlar sifatida ko'rib chiqildi. Ammo voyaga yetmaganlar, ya'ni 16 yoshdan 18 yoshga to'lgunga qadar shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganda ular O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 14-moddasida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi. Ular sodir etgan qilmish ko'rib chiqilganda Ma'muriy javobgarlik kodeksining 31-moddasiga muvofiq, yoshi ahamiyatga olinib, bu holat yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga kiradi<sup>5</sup>. Chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganda ularning harakatlarini javobgarlikka tortish va ularga jazo tayinlashda xalqaro huquq normalarida belgilangan qoidalar inobatga olinib Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning javobgarligi institutini o'rganish davomida bu sub'ektlar alohida tartibda belgilanganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun mazkur sub'ektlar alohida sub'ektlar guruhi sifatida talqin etiladi. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari

<sup>4</sup> Ma'muriy javobgarlik (Umumiy va Maxsus qism) / Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. 21- bet.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/acts/-97664>

tatbiq etiladigan boshqa shaxslar yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish choralari qo'llanilishi mumkin emas. Ushbu huquqiy normalardan kelib chiqadiki, harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslar javobgarligi umumiy sub'ektlar javobgarlik tartibidan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma'muriy javobgarlik (Umumiy va Maxsus qism) / Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. 760-bet.
2. Ризаев, Х. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ХУҚУҚБУЗАРЛИГИ ПРОФИЛАКТИКАСИ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(5), 141-147.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/acts/-97664>
4. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik / A. S. Yakubov, R. Kabulov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – 374 b.
5. Ризаев Худойназар амирулла ўғли. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида ички ишлар органларининг тутган ўрннию Yosh tadqiqotchi 1 (4), 188-198, 2022.